



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEKISTONDA TURIZM TIZIMI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI (1985–1990 YILLAR)

Murodov Halim

Buxoro davlat pedagogika instituti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asrning so‘nggi choragida jahon turizm sohasining jadal rivojlanishi hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritilgan. Xususan, 1980–1990-yillarda xalqaro turizm oqimlari va daromadlarining keskin oshishi turizmning strategik tarmoqqa aylanganini ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, sovet davrida O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan omillar, jumladan, markazlashgan boshqaruv tizimi, mablag‘ yetishmasligi, infratuzilmaning sust rivojlanganligi va mafkuraviy yondashuv tahlil etilgan. Maqolada 1950–1990-yillar davomida mavjud muammo va kamchiliklar bilan bir qatorda ayrim ijobiy o‘zgarishlar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Statistik ma’lumotlar asosida turizm ko‘rsatkichlarining o‘sish dinamikasi ochib berilib, 1985–1990-yillarda sohada yuzaga kelgan inqiroz sabablari asoslantirilgan. Yakunda, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda mustaqil boshqaruv, infratuzilmani rivojlantirish va bozor mexanizmlarini joriy etish zarurligi xulosa sifatida ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, meros, gid, ekskursiya, viza, mehmonxona, pullik xizmat, sanatoriy-kurort.

ТУРИСТСКАЯ СИСТЕМА В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЁ ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ (1985–1990 ГОДЫ)

Муродов Халим

Бухарский государственный педагогический институт, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье рассматривается стремительное развитие мировой туристической отрасли в последней четверти XX века и раскрывается её возрастающее социально-экономическое значение. В частности, значительный рост международных туристических потоков и доходов в 1980–1990-е годы свидетельствует о превращении туризма в стратегически важную отрасль экономики. Одновременно анализируются факторы, сдерживавшие развитие туризма в Узбекистане в советский период, включая централизованную систему управления, недостаточное финансирование, слабо развитую инфраструктуру и идеологическую направленность. Наряду с существующими проблемами и недостатками, в статье также отмечаются отдельные положительные изменения в сфере туризма в 1950–1990 годах. На основе статистических данных раскрывается динамика роста туристической отрасли, а также обосновываются причины кризисных явлений в 1985–1990 годах. В заключение подчеркивается необходимость внедрения самостоятельного управления, развития инфраструктуры и рыночных механизмов для дальнейшего развития туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: туризм, наследие, экскурсия, виза, гостиница, платная услуга, детский туризм, санаторий.

THE TOURISM SYSTEM IN UZBEKISTAN AND ITS MAIN CHARACTERISTICS (1985–1990)

Murodov Halim

Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor (PhD)

Abstract

: This article examines the rapid development of the global tourism industry in the last quarter of the 20th century and highlights its growing socio-economic importance. In particular, the sharp increase in international tourist flows and revenues during 1980–1990 demonstrates the transformation of tourism into a strategic sector of the economy. At the same time, the paper analyzes the factors that hindered the development of tourism in Uzbekistan during the Soviet period, including centralized governance, insufficient funding, underdeveloped infrastructure, and ideological constraints. Along with existing problems and shortcomings, certain positive developments in the tourism sector between 1950 and 1990 are also discussed. Based on statistical data, the dynamics of tourism growth are revealed, and the causes of the crisis in the sector during 1985–1990 are substantiated. The article concludes by emphasizing the importance of independent management, infrastructure development, and the introduction of market mechanisms for the advancement of tourism in Uzbekistan.

Keywords: tourism, heritage, excursion, visa, hotel, paid service, children's tourism, sanatorium.

XX asrning soʻnggi choragida jadal rivojlanish bosqichiga kirgan turizm sohasi dunyoning yetakchi davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda muhim omilga aylangan iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllandi. Ayniqsa, 1980–1990-yillar xalqaro turizmning tez surʼatlarda oʻsishi bilan xarakterlanadi. Xususan, 1980-yilda dunyo boʻyicha 278 million nafar xalqaro turist qayd etilgan boʻlsa, 1990-yilga kelib ularning soni 439 million nafarga yetgan. Bu esa qisqa davr ichida turistik oqimlarning qariyb 1,5 baravar oshganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, xalqaro turizmdan olinadigan daromadlar ham sezilarli ravishda koʻpayib, 1990-yilda 374 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Mazkur koʻrsatkichlar turizmning nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim tarmoqqa aylanganini tasdiqlaydi. Aynan shu davrda turizm jahon xoʻjaligining eng tez rivojlanayotgan yoʻnalishlaridan biri sifatida koʻplab davlatlarda bandlikni taʼminlash, valyuta tushumlarini koʻpaytirish va hududiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Natijada XX asrning soʻnggi choragiga kelib turizm iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllandi.

Afsuski, sovet davrida Oʻzbekistonda turizm sohasi mustaqil boshqaruvga ega boʻlmagan, aksincha, kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qiluvchi ikkilamchi tarmoqlardan biri sifatida faoliyat yuritgan. Aynan mana shu yondashuv mamlakatda turizm industriyasining toʻlaqonli rivojlanishiga jiddiy toʻsqinlik qildi. Jumladan, turistlarga xizmat koʻrsatishni taʼminlovchi subyektlar majmuasi — mehmonxonalar, boshqa joylashtirish vositalari hamda soha bilan bogʻliq infratuzilma obyektlarini qurish va tashkil etish jarayoni nihoyatda sust kechdi. Bu sustkashlikning asosiy sababi turizmga eʼtiborning pastligi va ushbu sohaga mablagʻ ajratishda qoldiq prinsipi qoʻllanilganidadir. Natijada istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, mehmonxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yangilashga qaratilgan zarur chora-tadbirlar toʻxtab qoldi.

Bu holat Oʻzbekistonda qator salbiy oqibatlarni yuzaga keltirdi. Birinchidan, mablagʻ yetishmasligi tufayli milliy turizmning asosiy qiziqish manbai boʻlgan tarixiy-meʼmoriy obidalarni asrash, restavratsiya qilish va saqlab qolish borasidagi ishlar keskin kamaydi, natijada koʻplab madaniy meros obyektlari yoʻqotildi yoki jiddiy zarar koʻrdi. Ikkinchidan, turizm sohasi imkoniyatlarining cheklanganligi sababli 1980-yillar oxirida mamlakatning qariyb yigirma million aholisidan atigi 5 foizi turistik xizmatlardan foydalana olgan, xolos. Sovet Ittifoqiga kirgan 15 respublika ichida aholi soni boʻyicha Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi oʻrinda turgan Oʻzbekiston turizm rivoji boʻyicha esa ancha orqada qolgan boʻlib, butun ittifoqdagi turistik mehmonxonalar, bazalar, lagerlar va pansionatlar umumiy sonining atigi 3 foizi, dam oluvchilar

sonining esa 3 foizi O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu holat mamlakatning mavjud turistik salohiyatidan ancha past natija qayd etilganini ko‘rsatadi.

Sovet davrida turizm va ekskursiyalar tizimi hech qachon mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy tashkilot sifatida faoliyat yuritmadi. Aksincha, u kommunistik mafkuraning targ‘ibot vositasiga aylantirilib, sohaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi muhim funksiyasiga yetarli e‘tibor qaratilmadi. Jumladan, O‘zbekistonda ham turizm imkoniyatlari yuqori bo‘lishiga qaramay, undan samarali foydalanilmadi. 1950–1990-yillarda turizm sohasidagi muammolar va kamchiliklar ittifoq respublikalarida, xususan, O‘zbekiston va uning turistik viloyatlarida yanada yaqqol namoyon bo‘ldi. Bular quyidagilardan iborat edi: O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo‘lsa-da, Markaz nazarida, avvalo, xom ashyo bazasi sifatida ko‘rilgani tufayli tarixiy-madaniy yodgorliklarni ta‘mirlash va restavratsiya qilishga yetarli e‘tibor qaratilmadi; turistlar shahar bo‘ylab mustaqil harakat qilganida taksi haydovchilarining insofsizligi va yo‘l haqlarining yuqoriligi salbiy taassurot uyg‘otdi; hammomlarning yetishmasligi, issiq suv, gaz va elektr energiyasi ta‘minotidagi uzilishlar, shaharlarda kanalizatsiya tizimining rivojlanmaganligi, oqova suvlarni chiqarish uchun zarur texnik vositalarning yetishmasligi, temir yo‘l transportida servis xizmatlarining to‘liq shakllanmaganligi va sifati pastligi turistik muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Shuningdek, ekskursiya dasturlarida mahalliy aholining kundalik hayoti haqida haqiqiy ma‘lumotlar deyarli aks ettirilmagan, aksincha, bo‘rttirilgan sovet turmush tarzi namoyish qilingan. Natijada turizm mafkuralar kurashining vositasiga aylantirilgan. Bundan tashqari, malakali mutaxassislar va gid-tarjimonlarning yetishmasligi, turizm sohasiga oid oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash faqat Toshkent va Samarqand bilan cheklangani, 1989–1990-yillardagi millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi, ekskursiyalarni tashkil etish imkoniyatlaridan amalda yetarli foydalanilmagani hamda turizm va ekskursiya tashkilotlarining mustaqil faoliyatiga yo‘l qo‘yilmagani mazkur sohaning rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘ldi.

Shu bilan birga, 1950–1990-yillarda O‘zbekistondagi turizm sohasi faqat muammo va kamchiliklardan iborat bo‘lmaganini ham qayd etish lozim. Bu davrda qator ijobiy o‘zgarishlar ham kuzatildi. Jumladan, O‘zbekistonda turizmning velosiped va piyoda sayohat turlari bo‘yicha ommaviy yurishlar hamda an‘anaviy sayohatlar yo‘lga qo‘yildi. Turizm bo‘yicha oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash maqsadida Samarqandda turizm va ekskursiya bo‘yicha dastlabki universitet tashkil etildi. Dastlabki turistik bazalar va komplekslar, xususan Chimyon turistik hududi shakllanib, ulardagi o‘rinlar soni bosqichma-bosqich ko‘paytirildi. Yoshlar va bolalar turizmi rivojlanib, bolalar sog‘lomlashtirish lagerlari tashkil etildi. Shuningdek, Buxoro, Zarafshon, Varaxsha kabi zamonaviy mehmonxonalar qurildi. Bundan tashqari, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan ko‘p kunlik sayohat marshrutlari yaratilib, “O‘zbekiston bo‘ylab ekskursiya”, “O‘zbekiston arxeologik yodgorliklari orqali” kabi yo‘nalishlar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Turizm va ekskursiyalar sohasi rivojida ham Markaz o‘z manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, turistik salohiyati yuqori bo‘lgan O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish choralari paysalga solingan, hatto sohaning istiqboli uchun muhim bo‘lgan loyihalar ham to‘liq amalga oshirilmagan. O‘zbekistonda 1970-yilda 8 ta, 1988-yilda esa 32 ta (ayrim manbalarda 36 ta) turistik joylashtirish vositalari mavjud bo‘lib, ulardagi o‘rinlar soni 8500 tani tashkil etgan. Bu butun ittifoqdagi mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarining atigi 3,3 foizini, ulardagi o‘rinlarning esa 1,9 foizini tashkil etgan. Bu esa O‘zbekistonda turizm sohasiga e‘tibor past bo‘lganidan dalolat beradi. Tahlillarga ko‘ra, asosiy turizm ko‘rsatkichlari bo‘yicha O‘zbekiston 15 ittifoqdosh respublika orasida Rossiya, Ukraina va Gruziyadan keyin to‘rtinchi o‘rinda bo‘lgan bo‘lsa-da, mavjud salohiyat va imkoniyatlarga nisbatan soha yetarli darajada rivojlantirilmagan.

Shunga qaramay, 1980-yillar davomida O‘zbekistonda xorijiy va ichki turizm sifat hamda miqdor jihatdan o‘sish tendensiyasini namoyon etdi. Ayniqsa, ichki va mintaqaviy turizmning faol ko‘rsatkichi 1986-yilda kuzatilib, bu vaqtda turistik mehmonxonalar, bazalar,

kemping va pansionatlar soni 23 taga, ulardagi o‘rinlar soni esa 8000 taga yetdi. Shu yili jami dam olganlar soni 1 million 46 ming kishini tashkil etdi. Quyidagi statistik ma’lumotlar O‘zbekistonda mehmonxona, sanatoriy va boshqa dam olish maskanlarida dam olgan va davolanganlar sonining o‘shish dinamikasini ko‘rsatadi.

1980-yilda mehmonxona va sanatoriylardan foydalanganlar soni 811,3 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 1985-yilda bu ko‘rsatkich 1241,7 ming kishiga, 1986-yilda 1452 ming kishiga, 1987-yilda 1459,1 ming kishiga, 1988-yilda 1497,1 ming kishiga, 1989-yilda 1474,4 ming kishiga, 1990-yilda esa 1603,8 ming kishiga yetgan. Jumladan, 1990-yilda turistik mehmonxonalar va bazalarda 1 million 136 ming kishi dam olgan. Bu ko‘rsatkich 1980-yildagi 558,9 ming kishilik darajaga nisbatan sezilarli o‘shishni anglatadi.

Mazkur statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1980–1990-yillar oralig‘idagi eng yuqori ko‘rsatkich 1990-yilda qayd etilgan. Joriy yilda O‘zbekistonda turistik va sog‘lomlashtirish xizmatlaridan foydalanganlar soni jami 1 million 603,8 ming kishini tashkil etgan. Bu yerda e’tiborli jihat shundaki, 1990-yilda 1988-yilga nisbatan mehmonxona, sanatoriylar va dam olish maskanlari umumiy soni 3 taga, ulardagi o‘rinlar soni esa 300 taga kamaygan bo‘lsa-da, umumiy xizmat ko‘rsatish hajmi oshgan. Bunga, birinchidan, ayrim kichik turistik obyektlar faoliyati to‘xtatilgan bo‘lsa-da, yirik mehmonxonalarda qo‘shimcha 1000 ta yangi o‘rin tashkil etilgani, ikkinchidan, davlat va korxonalar tomonidan aholi dam olishi va salomatligini tiklash uchun ajratiladigan mablag‘ hamda imtiyozlarning ko‘paygani, uchinchidan esa aholi orasida sayohat va dam olishga bo‘lgan qiziqishning ortgani sabab bo‘lgan.

1990-yilda 900 mingga yaqin bolalar va o‘smirlar yoz mavsumida pioner va maktab lagerlari, ekskursiya va turistik bazalarda dam olgan. Bu esa yoshlar va bolalar turizmiga davlat darajasida ma’lum e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 1990-yilda sanatoriy va dam olish maskanlaridagi umumiy o‘rinlarning 6 mingtasi oilalar uchun, 1,2 mingtasi esa bolali otionalarni davolash uchun mo‘ljallangan edi. Bundan tashqari, 5,4 ming o‘ringa ega 111 ta bir-ikki kunlik dam olish maskanlari ham faoliyat ko‘rsatgan.

Biroq mavjud sanatoriy-kurort va dam olish muassasalari tarmog‘i aholining ehtiyojlarini to‘liq qondira olmagan. 1990-yildagi 20 million 322 ming kishilik O‘zbekiston aholisidan atigi 1,6 million kishi davolanish va dam olish xizmatlaridan foydalana olgan, bu esa umumiy aholining taxminan 8 foizini tashkil etadi. Ayniqsa, turistik korxonalarda pullik xizmat ko‘rsatish sohasi yetarli darajada rivojlanmagan edi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan turistik-ekskursiya xizmatlari O‘zbekiston bo‘yicha 6,4 rublni tashkil etgan bo‘lsa, Toshkent shahrida bu ko‘rsatkich 19 rubl, Samarqand viloyatida 8,2 rubl, Buxoro viloyatida esa 6,9 rublni tashkil etgan. Qolgan viloyatlarda esa bu ko‘rsatkich respublika o‘rtacha darajasidan ham past bo‘lgan. Bu holat turizm sohasida bozor mexanizmlarining yo‘qligi, zamonaviy boshqaruvning yetishmasligi, kadrlar muammosi va marketing-targ‘ibot ishlarining sustligi bilan izohlanadi.

O‘zbekistonda 1980-yillar va ayniqsa 1990-yildagi turizm sohasidagi ijobiy o‘zgarishlarga bir necha omillar sabab bo‘lgan. Birinchidan, aholiga davlat va turli tashkilotlar tomonidan beriladigan imtiyozlar, nafaqalar va to‘lovlar miqdorining yil sayin oshib borishi dam oluvchi hamda sog‘lomlashtirish xizmatlaridan foydalanuvchi fuqarolar sonining ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatgan. Ikkinchidan, 1950–1980-yillarda turistik industriyaning shakllanishi, ya’ni mehmonxonalar, turistik komplekslar, sanatoriy-kurort muassasalari, dam olish maskanlari, transport va umumiy ovqatlanish obyektlarining tashkil etilishi keyingi rivojlanish uchun ma’lum asos yaratgan. Uchinchidan, respublika turizm va ekskursiyalar kengashi tomonidan Xalq ta’limi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda narx-navoni tartibga solish, xizmat ko‘rsatish dasturlarini kengaytirish va ekskursiya ishtirokchilari doirasini oshirish bo‘yicha ishlar olib borilgan.

Shu bilan birga, 1986–1989-yillarda turizm bilan bog‘liq sohalarda turg‘unlik va inqirozli holat yuzaga keldi. Bu, avvalo, chuqurlashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, xo‘jalik aloqalaridagi uzilishlar, inflyatsiya, transport chiptalari narxining oshishi, vaucher tizimining

samarasizligi bilan bog‘liq edi. Bundan tashqari, 1989-yilda Toshkent, Farg‘ona, Andijon va Qo‘qon hududlarida yuz bergan millatlararo mojarolar ham mamlakatning turistik jozibadorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Turizm infratuzilmasining sust rivojlanganligi, ovqatlanish va ko‘ngilochar xizmatlarning yetishmasligi, tor doiradagi servis, yo‘llarning ta‘mirlanish va transport sifati pastligi mavjud muammolarni yanada chuqurlashtirdi.

Demak, 1950–1970-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasi asta-sekin shakllanib, xorijiy sayyohlarning qiziqishi va tashriflari ortishi natijasida dastlabki mehmonxonalar va infratuzilma obyektlari vujudga keldi. 1980-yillarga kelib esa ichki turizm muayyan ijobiy siljishlar kuzatilib, aholi orasida sayohatga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi. Biroq 1986–1989-yillarda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, xo‘jalik aloqalarining izdan chiqishi, inflyatsiya, transport xizmatlari narxining oshishi hamda turizm xizmatlariga talabning pasayishi sohada turg‘unlik holatini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, millatlararo vaziyatning murakkablashuvi va ayrim hududlarda ro‘y bergan mojarolar turizmning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Turizm infratuzilmasining rivojlanmaganligi, servis xizmatlarining torligi, yo‘l va transport bilan bog‘liq kamchiliklar esa mavjud muammolarni yanada chuqurlashtirdi. Natijada mazkur davr O‘zbekistonda turizm sohasining barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan, uning mavjud salohiyati to‘liq ro‘yobga chiqmagan murakkab va ziddiyatli bosqich sifatida namoyon bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, 1985–1990-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasi chuqur inqirozli holatda bo‘lgan. Buning asosiy sabablari, birinchidan, turizm va ekskursiya ishlari markazlashgan tarzda boshqarilganligi va mahalliy turizm tashkilotlarining mustaqil harakat qila olmaganidadir. Bu esa hududlarda samarali va istiqbolli rejalar tuzish, yangi turistik mahsulot va yo‘nalishlar yaratish hamda xorijiy hamkorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatishga imkon bermagan. Ikkinchidan, turizmdan tushadigan daromadlarning hududiy rivojlanishga yo‘naltirilmaligi sohaning ichki imkoniyatlarini cheklagan. Uchinchidan, turizm kommunistik mafkuraning targ‘ibot vositasiga aylantirilib, uning iqtisodiy va ijtimoiy roli ikkinchi darajaga tushirib qo‘yilgan. To‘rtinchidan, xususiy sektor faoliyatiga yo‘l qo‘yilmagan. Beshinchidan, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning asosiy omili bo‘lgan tarixiy-madaniy yodgorliklar, masjid va maqbaralarning ko‘pchiligida obodonlashtirish va ta‘mirlash ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Oltinchidan, markazlashtirilgan rejalashtirish va direktiv boshqaruv usuli turizm sohasida o‘zini oqlamagan. Chunki iqtisodiy samaradorligi oshib borayotgan turizm tarmog‘i 1980-yillarda ham strategik ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kiritilmagan. Shuningdek, hozirgi kundagi kabi yagona turistik siyosat, hududlar uchun aniq davlat dasturlari, rivojlantirish konsepsiyalari va tizimli rejalar ishlab chiqilmagan.

Shu sababli mustaqillikdan keyin O‘zbekistonda turizm sohasini xalqaro talablar darajasida tubdan isloh qilish, zamonaviy infratuzilma yaratish va xizmat ko‘rsatish tizimini yangilash zarurati tarixiy zarurat sifatida maydonga chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Statistical data on Italy. – URL: https://stats.areppim.com/stats/stats_ita.htm
2. National economy of the Uzbek SSR in 1988: statistical yearbook. – M.: Finance and Statistics, 1989. – P. 20.
3. Bagdasaryan V. E., Orlov I. V. Soviet “Zerkale” (foreign tourism in the USSR in 1930–1980). – M., 2007. – P. 161.
4. Mansurov M. Ideological bases of tourism development in the former Soviet Union // *Bulletin of Khorezm Mamun Academy*. – 2021. – № 1 (70). – P. 106–109.
5. Mansurov M. Sh. Development processes and status of tourism in the Fergana Valley (1980–2018): abstracts. – T., 2020. – P. 12.
6. Abdumalikov R., Kholdorov T. Tourism. – T.: O‘qituvchi, 1988. – P. 24–38.
7. National Archive of the Republic of Uzbekistan. – Fund 141-M, list 1, file 12, p. 36.
8. National Archive of the Republic of Uzbekistan. – Fund 141-M, list 1, file 12, p. 39.
9. National Archive of the Republic of Uzbekistan. – Fund 141-M, list 1, file 12, p. 191.

10. Bukhara regional state archive. – Fund 1503-M, list 1, file 27, pp. 299–300.
11. Egamberdieva G. Stages of reforming the tourism sector in Uzbekistan (second half of the XX century – first quarter of the XXI century) // *Scientific News – Nauchnyy vestnik FerGU*. – Fergana, 2020. – № 2. – P. 89–94.
12. National economy of the USSR in 1986: statistical yearbook. – M.: Finance and Statistics, 1987. – P. 603.
13. National economy of the USSR in 1988: statistical yearbook. – M.: Finance and Statistics, 1989. – P. 239.
14. National economy of the Uzbek SSR in 1990: statistical yearbook. – T.: Uzbekistan, 1991. – P. 79–80.
15. National economy of the Uzbek SSR in 1990: statistical yearbook. – T.: Uzbekistan, 1991. – P. 143.
16. National economy of the Uzbek SSR in 1990: statistical yearbook. – T.: Uzbekistan, 1. – P. 40.